



# O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

*VOL. 2 ISS: 5 (2025)*

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	<b>SUG'URTA KOMPANIYALARI INVESTITSION FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHDA MOLIYAVIY MEKANIZMLARNING ROLI: NAZARIYA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI</b> <i>Abdullayev Erkinjon A'zamovich</i>	4
2.	<b>GLOBALASHUV SHAROITIDA IQTISODIY INTEGRATSIYA VA RAQAMLASHTIRISHNING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI</b> <i>Nomozova Qumri Isoevna</i>	8
3.	<b>МЕХАНИЗМЫ ФИНАНСОВОГО СТИМУЛИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА СТРАХОВОГО СЕКТОРА ПОСРЕДСТВОМ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ПЕРЕСТРАХОВАНИЯ</b> <i>Мухамедов Фарход Турсунбаевич, Муминова Ансора Улугбек кизи</i>	11
4.	<b>POLYUTSIYA SUG'URTASI MOHIYATI VA O'ZBEKISTONDA JORIY QILISH MASALALARI</b> <i>Erkaboyev Yorbek Boirbekovich</i>	14
5.	<b>ISLOM MOLIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI, AMAL QILISHI BILAN BOG'LIQ O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</b> <i>Qo'ldoshev Jahongir Qamariddinovich</i>	17
6.	<b>XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ILMIY YONDASHUVLARI</b> <i>Ko'charov Xurshid Xurram o'g'li</i>	19
7.	<b>O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SUG'URTA XIZMATLARINING ROLI</b> <i>Kalenov K.T.</i>	22
8.	<b>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETINING TO'G'RI SOLIQ TUSHUMLARI TAHLILI</b> <i>Shirinov Sabir Erkinovich</i>	25
9.	<b>IQTISODIYOTNING INNOVASION RIVOJLANISH SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING AVSTRALIYA MODEL</b> <i>Daniyarov Kuatbay Dauirxanovich</i>	29
10.	<b>O'ZBEKISTON SHIMOLIY HUDUDLARIDAGI EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING OZIYQ-OVQAT SANOATINING RIVOJLANISHIGA TA'SIRI</b> <i>Tleuov Niyetulla Raxmanovich</i>	32
11.	<b>SANOAT ASOSIDA OZIYQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA INNOVATSION VA KLASTER USULLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'NALISHLARI</b> <i>Tleuov Niyetulla Raxmanovich</i>	35
12.	<b>TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AKSIYADORLIK JAMIYATLARI FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI</b> <i>Xasanov Xayrullo Nasrullayevich</i>	38

## “O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshov Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



## IQTISODIYOTNING INNOVASION RIVOJLANISH SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING AVSTRALIYA MODEL

Daniyarov Kuvatbay Daurxanovich

Qoraqalpog' davlat universitetining mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimiz iqtisodiyoti innovasion rivojlanishini ta'minlashda tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni rivojlantirishda Avstraliya modelidan foydalanishning ahamiyati asoslab berilgan. Avstraliya modeli bo'yicha Avstraliyalik, Rossiyalik va mahalliy olimlarning ilmiy-nazariy xulosalari o'rganilgan. Avstraliya modelining tarkibiy qismlari tahlil qilingan va mamlakatning Global innovasiyalar indeksidagi pozitsiyasi muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiyotning innovasion rivojlanishi, Avstraliya modeli, Global innovasiyalar indeksi, tadbirkorlik sub'ektlari, kichik va o'rta biznes.

**Abstract:** In this article, the importance of applying the Australian model in developing financial support for business entities to ensure the innovative development of our country's economy is substantiated. The scientific and theoretical conclusions of Australian, Russian, and local scholars regarding the Australian model have been examined. The components of the Australian model have been analyzed, and the country's position in the Global Innovation Index has been discussed.

**Keywords:** innovative economic development, the Australian model, the Global Innovation Index, business entities, small and medium-sized enterprises.

**Абстрактный:** В данной статье обосновано значение использования австралийской модели при развитии финансовой поддержки субъектов предпринимательства в обеспечении инновационного развития экономики нашей страны. Изучены научно-теоретические выводы австралийских, российских и отечественных ученых относительно австралийской модели. Проанализированы компоненты австралийской модели и обсуждено положение страны в Глобальном индексе инноваций.

**Ключевые слова:** инновационное развитие экономики, австралийская модель, Глобальный индекс инноваций, субъекты предпринимательства, малый и средний бизнес.

### Kirish (Introduction/Введение).

Global bozorda raqobatbardosh milliy brendlari bilan o'z pozitsiyasiga ega bo'lishga intilayotgan O'zbekistonda ham so'nggi yillarda innovasion iqtisodiyotga o'tish yo'lida sezilarli ijobiy siljishlarga erishilayotgan bo'lib, bunda tadbirkorlik sub'ektlari, xususan kichik va o'rta biznes (KO'B) sub'ektlarining rolini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. KO'B sub'ektlari iqtisodiyotning drayveri hisoblanib, 2024 yil yakunlariga ko'ra, ularning YaIM dagi ulushi 54,3 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 32,4 foiz, asosiy kapitalga kiritilgan investisiya hajmidagi ulushi 51,8 foiz, savdo aylanmasidagi ulushi 84,0 foiz, ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi 57,0 foiz va mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi 33,3 foizni tashkil etgan [1], shuningdek, 2023 yil yakunlariga ko'ra, jami bandlikdagi ulushi 74,0 foizni tashkil etgan [2].

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, mamlakatimiz iqtisodiyotining innovasion rivojlanish sharoitida tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, xususan moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash nihoyat darajada zarur bo'lib, bu borada rivojlangan mamlakatlar modellari, xususan Avstraliya modelini o'rganish va undan samarali foydalanish foydali ahamiyat kasb etadi.

### Tadqiqot maqsadi va usullari (Research objective and methods, Цель и методы исследования).

Tadqiqot maqsadi rivojlangan mamlakatlardan biri bo'lgan Avstraliya iqtisodiyotining innovasion rivojlanish sharoitida tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini o'rganish va ushbu mamlakat tajribasidan O'zbekistonda foydalanish bo'yicha xulosalar ishlab chiqishdan iborat bo'lib, ushbu maqsadga erishish tadqiqot usullaridan samarali foydalanishga har tomonlama bog'liq bo'ldi.

Maqola xalqaro IMRAD talablariga rioya etilgan holda tayyorlangan bo'lib, unda asosan uchta tadqiqot usuli qo'llanildi: ilmiy-nazariy tahlil usuli, nazariy-amaliy tahlil usuli va iqtisodiy-statistik tahlil usuli. Ilmiy-nazariy tahlil usuli asosan maqolaning "Mavzuga oid adabiyotlar sharhi" qismi uchun to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilishda ishlatilgan bo'lsa,

iqtisodiy-statistik tahlil usuli maqolaning "Tahlil va natijalar" qismi uchun to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilishda ishlatildi. Nazariy-amaliy tahlil usuli bo'lsa maqolaning ushbu ikkala qismida ham ishlatildi.

Maqola uchun ma'lumotlarni to'plash jarayonida asosan Google, Google Scholar va Yandex qidiruv tizimlari hamda Global innovasion indeks bo'yicha nashr etilgan xalqaro hisobot ma'lumotlaridan foydalanildi.

Maqolani tayyorlashda axborot va ma'lumotlardan maksimal darajada foydalanish, mantiqiy ketma-ketlik va izchilikka rioya etish hamda plagiatga olib kelishi mumkin bo'lgan "copy-paste" usulidan foydalanmaslikka harakat qilingan bo'lib, bu tadqiqot maqsadiga erishishga yordam berdi.

### Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Literature review, Анализ литературы).

Iqtisodiyotning innovasion rivojlanish sharoitida tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning Avstraliya modelini bir qator Avstraliyalik, MDH mamlakatlari hamda mahalliy olimlar o'rganishgan bo'lib, quyida ularning ayrimlar xususida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Avstraliyalik olimlar Kristin Lyuis va Ben Vestmorning ta'kidlashicha, tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning Avstraliya modeli davlat siyosati, moliya bozorlari va innovasiyalar bilan shug'ullanadigan institutlar o'rtasida muvofiqdastirilgan hamkorlikka asoslanadi. Mamlakat hukumati innovasiya, ilmiy tadqiqotlar va raqamli transformasiyaga investisiyalarni yo'naltirishni rag'batlantiruvchi maqsadli dasturlar, soliq imtiyozlari va hamkorlikda moliyalashtirish (co-financing) mexanizmlarini taqdim etadi.

Tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari barqaror va innovasion o'sishning milliy ustuvor yo'nalishlari bilan tobora ko'proq uyg'unlashib bormoqda. Yashil iqtisodiyotga o'tish, iqlim moliyasi va ESG tamoyillariga bog'liq bo'lgan tashabbuslar orqali Avstraliya hukumati nafaqat tadbirkorlik

sub'ektlarining raqobatbardoshligi, balki uzoq muddatli ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ham rag'batlantirmoqda.

Mamlakatdagi tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimida grant, imtiyozli kredit, venchur kapital sxemasi va kafolat kabi instrumentlardan foydalaniladi. Davlat yuqori texnologiyalar va startap sektorlariga xususiy investorlarning kapitali oqimini rag'batlantirish maqsadida o'z mablag'lari hisobidan ularning muayyan yo'qotishlarini qoplab beradi.

Avstraliya Prudensial nazorat idorasi (ARPA – The Australian Prudential Regulation Authority), Avstraliya Zaxira banki (The Reserve Bank of Australia) va G'aznachilik idorasi moliyaviy barqarorlik, innovatsiyani moliyalashtirish va inklyuzivlik siyosatlarini o'zaro muvofiqlashtirib turadi. Qonunchilik bazasi va me'yoriy-huquqiy hujjatlar innovasion ekotizimlar doirasida shaffoflik, iste'molchilarni himoya qilish va resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlaydi.

Mamlakatda tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda kichik va o'rta biznes (KO'B) ga alohida e'tibor qaratilib, u innovatsiyalar va bandlikning harakatlantiruvchi kuchi sifatida gavydalanadi. Moliyalashtirish dasturlari KO'B da raqamlashtirishni qo'llab-quvvatlash, samaradorlikni oshirish va kapitaldan foydalanishni kengaytirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu mintaqaviy iqtisodiy diversifikatsiya va barqarorlikning kuchayishiga imkon yaratadi.

Avstraliya hukumati innovasion strategiyasi ijtimoiy jihatlarni ham qamrab olgan bo'lib, unda ijtimoiy muhtoj guruhlarning moliyaviy savodxonligini oshirish, ularni innovasion jarayonlarga jalb etish va raqamlashtirish imkoniyatlardan foydalanishlariga e'tibor qaratiladi. Bu esa innovasion iqtisodiyotdagi ishtirok doirasini kengaytiradi va inson kapitalini shakllantirishga ko'maklashadi.

Kristin Lyuis va Ben Vestmorning xulosasiga ko'ra, Avstraliya modelida davlat siyosatini texnologik o'zgarishlar, ekologik muammolar va global bozor dinamikasiga uzluksiz ravishda moslashtirib borish barqaror innovasion o'sishga erishishni ta'minlamoqda. Moliya, innovatsiya va inklyuzivlik o'rtasidagi integratsiya mamlakatda uzoq muddatli raqobatbardoshlik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi [3].

Rossiyalik olim O. V. Mosolovanning tavsifiga ko'ra, iqtisodiyotning innovasion rivojlanish sharoitida tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning Avstraliya modeli investitsiyalarni rag'batlantirish, venchur kapitalini rivojlantirish va startaplarni qo'llab-quvvatlashga asoslanadi. Ushbu modelning asosiy elementlari sifatida ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga investitsiya qiladigan kompaniyalar uchun taqdim etiladigan soliq imtiyozlari va subsidiyalar, shuningdek davlat jamg'armalari orqali tadbirkorlik sub'ektlarining innovasion loyihalarini moliyalashtirish dasturlarini ko'rsatish mumkin [4].

Mahalliy olim G. L. Yoziyev fikriga ko'ra, Avstraliyada tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash faqat moliyaviy emas, balki ilmiy, texnologik, muhandislik va tijorat tuzilmalarining o'zaro bog'langan tizimi orqali amalga oshiriladi. Bunda innovasion faoliyatning barcha ishtirokchilari yagona ekotizimga birlashtiriladi. Davlat grantlar, imtiyozli kreditlar, kafolatlar va venchur kapital dasturlari orqali tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy rag'batlantiradi; ilmiy tadqiqot uchun soliq imtiyozlari beradi; shuningdek, ilmiy markazlar va tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasidagi hamkorlikni markazlashtirilgan tarzda qo'llab-quvvatlaydi [5].

Umuman olganda, innovasion rivojlanish sharoitida tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning Avstraliya modeli bo'yicha yana ko'plab olimlarning xulosalarini keltirishimiz mumkin bo'lib, ularning deyarli barchasida davlatning roli ustuvor ekanligiga e'tibor qaratilgan. Darhaqiqat, Avstraliya singari rivojlangan mamlakatda ham tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda davlatning tutgan o'rni katta ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatimiz iqtisodiyoti innovasion rivojlanishida ushbu mamlakat tajribasining ijobiy jihatlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lardi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and Results, Анализ и результаты).**

Biz yuqorida iqtisodiyotning innovasion rivojlanish sharoitida tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha Avstraliya modeli ilmiy-nazariy jihatlarni ko'rib chiqdik. Maqolamizning ushbu qismida modelning amaliy jihatlari ko'proq e'tiborni qaratamiz.

1-jadvalda Avstraliya modelining tarkibiy qismlari ifoda etilgan bo'lib, ular asosan to'rt guruhga bo'linadi:

**1-jadval**  
**Iqtisodiyotning innovasion rivojlanish sharoitida tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha Avstraliya modelining asosiy tarkibiy qismlari [6]**

T/r	Tarkibiy qismlar	Tarkibi	Tavsifi
1.	<b>Davlat tomonidan bevosita moliyalashtirish</b>	Avstraliya innovatsiyalar jamg'armasi	Iqtisodiyotning turli sektorlarida innovasion loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan Davlat jamg'armasi
		Subsidiyalash dasturlari	Iqtisodiyotning ustuvor sektorlari, masalan, yuqori texnologiyalar, biotexnologiyalar va toza energiya kabilarda faoliyat ko'rsatadigan tadbirkorlik sub'ektlarini maqsadli qo'llab-quvvatlash dasturlari
2.	<b>Xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish</b>	Soliq imtiyozlari	Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga investitsiya qiladigan tadbirkorlik sub'ektlari uchun soliq imtiyozlarini taqdim etish
		Venchur kapitali	Davlat tomonidan venchur jamg'armalarini qo'llab-quvvatlash va xususiy investorlar uchun soliq rag'batlaridan iborat bo'lgan rivojlangan venchur moliyalashtirish tizimi
3.	<b>Kichik va o'rta biznes (KO'B) ni qo'llab-quvvatlash</b>	Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlari	KO'B ning innovasion faoliyatini rag'batlantirish maqsadida moliyaviy va konsultatsion qo'llab-quvvatlash
		Innovatsion klasterlarni yaratish	KO'B ga resurslar va infratuzilmadan foydalanish imkoniyatini taqdim etadigan klasterlar va texnoparklarni shakllantirish
4.	<b>Xalqaro kooperatsiya</b>	Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish	Texnologiya va bilimlar transferini qo'llab-quvvatlash maqsadida innovasion loyihalarga xorijiy investitsiyalar oqimini rag'batlantirish
		Xalqaro hamkorlik	Innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan xalqaro tadqiqot loyihalari va dasturlarida ishtirok etish

Davlat tomonidan bevosita moliyalashtirish; xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish; kichik va o'rta biznes (KO'B) ni qo'llab-quvvatlash; xalqaro kooperatsiya. Ushbu jadvaldan kelib chiqqan holda Avstraliya modelidagi quyidagi muhim xususiyatlar va mexanizmlarni ko'rib chiqamiz:

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash: Avstraliya hukumati turli xil chora-tadbirlar, jumladan soliq imtiyozlari, grantlar, subsidiyalar va investitsiyalar uchun rag'batlar orqali innovatsiyalarni faol ravishda qo'llab-quvvatlaydi;

Soliq rag'batlantirishlari: innovasion faoliyat bilan shug'ullanadigan kichik va o'rta biznes sub'ektlari (KO'B) uchun pasaytirilgan soliq stavkalari va maxsus chegirmalar taqdim etiladi;

Xususiy kapitalni jalb qilish: Avstraliya modelida innovasion loyihalarni moliyalashtirishning asosiy manbalari sifatida venchur kapitali va xususiy investitsiyalardan foydalanishga nihoyat darajada kuchli e'tibor qaratiladi;

Innovasion infratuzilma rivojlanishi: mamlakat hukumati ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (R&D – Research and development) ning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida kuchli milliy innovasion tizim va infratuzilmani rivojlantirishga faol ravishda investitsiya qiladi;


Egiluvchanlik va moslashuvchanlik: moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi joriy iqtisodiy shart-sharoitlar va ehtiyojlarga moslashish maqsadida muntazam ravishda o'zgarib turadi, ya'ni ayrim dasturlar tugatiladi va boshqalari ishga tushadi;

Iqtisodiyotning muayyan tarmoqlariga asosiy e'tiborning qaratilishi: garchi Avstraliya iqtisodiyoti ko'p tarmoqli bo'lsada, yuqori o'sish salohiyatiga ega bo'lgan sektorlar, jumladan xizmatlar, tog'-kon sanoati va fintex-texnologiyalardan foydalanadigan qishloq xo'jaligidagi innovatsiyalarga katta e'tibor qaratiladi;

Klaster yondashuvi: tadbirkorlik sub'ektlarining raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirish maqsadida korxonalar va ilmiy tashkilotlarni o'zaro birlashtirgan klaster konsepsiyasi faol ravishda rivojlanmoqda.

Yuqorida fikr-mulohazalarimizdan ko'rinib turganidek, Avstraliyada iqtisodiyot innovatsion rivojlanish sharoitida tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi samarali yo'lga qo'yilgan. Biroq, bunga amaliy ishonch hosil qilish uchun, e'tiboringizni 1-rasmga qaratmoqchimiz.

1-rasm Janubiy Sharqiy Osiyo, Sharqiy Osiyo va Okeaniya mamlakatlari orasidan 2024 yilda Global innovatsiyalar indeksi (GII – Global Innovation Index) ga ega bo'lgan Top-10 ta mamlakat ko'rsatilgan bo'lib, Avstraliya bular orasidan oltinchi o'rinni egallagan (GII - 48,1). Shu raqamning o'zidan ham ko'rinib turibdiki, yuqorida aytib o'tganimizdek, iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish sharoitida tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning Avstraliya modeli samarali amalga oshirilmoqda. Buning natijasida, mamlakatda bir qator muvaffaqiyat omillari kuzatilayotgan bo'lib, ular jumlasiga quyilagilarni kiritish mumkin:



1-rasm. 2024 yilda Global innovatsiyalar indeksiga Top-10 ta Janubiy Sharqiy Osiyo, Sharqiy Osiyo va Okeaniya mamlakatlari [7]

Barqaror iqtisodiyot: Avstraliya iqtisodiyotining yuqori texnologik sektorni o'z ichiga olgan tarmoqli tuzilmasi innovatsiyalarning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratmoqda;

Innovatsion muhit: mamlakatdagi rivojlangan ilmiy-texnik baza va malakalardan iborat bo'lgan innovatsion salohiyat innovatsion korxonalarini qo'llab-quvvatlash imkoniyatini bermoqda;

#### Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

- O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati: kichik tadbirkorlik sub'ektlari. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining axborotnomasi (2024 yil yanvar-dekabr oylari). T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2024. 227-252 betlar.
- Kichik biznes va tadbirkorlik: kichik tadbirkorlik sub'ektlarining jami bandlikdagi ulushi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ochiq ma'lumotlari. T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2025. Christine Lewis & Ben Westmore. The role of the Australian financial sector in supporting a sustainable and inclusive recovery // OECD Economics Department Working Papers No.1699. Paris – 2021. 65 pages.
- Мосолова О. В. Австралия: экономика роста // Юго-восточная Азия: актуальные проблемы развития. Том II, № 2 (51), 2021. С. 241-253.
- Yo'ziev G'. L. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat innovatsion rivojidadagi salohiyatini oshirishning asosiy yo'nalishlari (Osiyo-tinch okeani mintaqasi mamlakatlari tajribasi misolida) // Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2019. 53 bet.
- Медведев М. Б., Трушина К. В. Австралия: анализ вектора цифровизации в сельском хозяйстве и финансах // Международный сельскохозяйственный журнал. Том 68, № 2 (404), 2025. С. 165-168.
- Soumitra Dutta, Bruno Lanvin, Lorena Rivera Leon & Sacha Wunsch-Vincent. Global Innovation Index 2024: Unlocking the Promise of Social Entrepreneurship. 17<sup>th</sup> Edition. Geneva: WIPO, 2024. 323 pages.

Global aloqalar: mamlakat rivojlangan global aloqalari innovatsiyalar sohasida hamkorlikni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilishga ko'maklashmoqda.

Umuman olganda, Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish sharoitida tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha Avstraliya modeli innovatsion korxonalar, jumladan innovatsion faoliyat bilan shug'ullanadigan tadbirkorlik sub'ektlari uchun qulay investitsion iqlimni yaratish, ularning kapitaldan foydalanish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish va xususiy investitsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan bo'lib, bunda davlatning ishtiroki katalizator va kafil sifatida namoyon bo'ladi.

#### Xulosa (Conclusion/Заключение).

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, iqtisodiyot innovatsion rivojlanish sharoitida tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha Avstraliya modelini o'rganish bunday rivojlanishga intilayotgan mamlakatimiz uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, buni quyidagilar orqali tushuntirib berishga harakat qilamiz:

Avstraliya modelida innovatsiyani rivojlantirishda venchur kapitali va xususiy investitsiyalarni jalb etishga katta e'tibor qaratilayotgan bo'lib, mamlakatimizda endi shakllanib kelayotgan venchur moliyalashtirish tizimini rivojlantirishda Avstraliya tajribasini o'rganish yo'lga qo'yilsa maqsadga muvofiq bo'lardi;

Avstraliyada ilmiy tadqiqot markazlari va tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro integratsiya samarali rivojlanayotgan bo'lib, bu innovatsion rivojlanishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda aynan shunday integratsiyani rivojlantirish iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta'minlashga muhim e'tibor qaratilayotgan bo'lib, bu borada Avstraliya tajribasini o'rganish alohida ahamiyat kasb etgan bo'lardi;

Avstraliyada iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta'minlash maqsadida tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash milliy innovatsion ekotizim doirasida amalga oshirilayotgan bo'lib, unda innovatsiya sohasidagi barcha tuzilmalarning faoliyati muvofiqlashtirib boriladi. Mamlakatimizda aynan shunday ekotizimni rivojlantirish maqsad qilingan bo'lib, bunda Avstraliya tajribasidan foydalanish zarur ahamiyatga egadir.

Umuman olganda, yuqoridagi kabi tavsiyaviy ahamiyatga ega xulosalarni yana ko'plab keltirishimiz mumkin. Lekin, 1-rasmidagi raqamlarning o'zidan ko'rinib turibdiki, mamlakatimiz iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishga erishish uchun Avstraliya tajribasidan ko'p tomonlama foydalansa bo'ladi. Faqat, bizni ilmiy jihatdan qiziqtirgan yana bitta masala shundaki, nega Avstraliya katta iqtisodiy salohiyati bilan Janubiy Sharqiy Osiyo, Sharqiy Osiyo va Okeaniya mintaqasida 6-o'rinda turibdi. Keyingi tadqiqotlarimizda, bunday holatning sabablarini o'rganish va unga aniqlik kiritishga harakat qilamiz.